

26-MAY

2023



Toshkent tibbiyot akademiyasi



Toshkent davlat stomatologiya instituti

TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIIY FANLARNI O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi

Google Scholar indexed

CYBERLENINKA

Google
scholar



Toshkent tibbiyot akademiyasi

www.tma.uz

Toshkent davlat stomatologiya
isntituti

www.tsd.uz

“Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida Ijtimoiy fanlarni o'qitishning dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 2023-yil 26-mayda Anjumanda Rostov davlat tibbiyot universiteti, X.A.Yassaviy nomidagi Xalqaro qozoq-turk universiteti, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti, O'zbekiston Milliy universiteti va boshqa xalqaro hamda respublikaning nufuzli oliy ta'lim muassasalari hamkorligida tashkil etilgan konferensiya asosida tayyorlangan bo'lib, ushbu to'plam tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida Ijtimoiy fanlarni o'qitishdani muammolariga bag'ishlangan.

Keltirilgan dalillar, iqtiboslar va statistik ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun maulliflar mas'uldirlar.

Toshkent - 2023



Bosh muharrir: t.f.d., professor A.Q.Shadmanov

Tahririyat a'zolari: professor F.L. Azizova, t.f.d., professor Sh.A. Boymurodov, professor S.D. Norqulov, professor Z.M. Muxamedova, professor D.T. Norqulov, professor U.M. Abilov, dotsent F.S. Atamuratova, dotsent S.G. Alimova

“TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIIY FANLARNI
O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI, 2023-yil 26-may.



AXLOQSHUNOSLIKDA KASBIY AXLOQ MASALALARI

Do'stmurod Toshpo'latovich Norqulov

Falsafa fanlari doktori, Toshkent tibbiyot akademiyasi
Ijtimoiy fanlar kafedrasida professori

ANNOTATSIYA

Maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida kasbkorlik axloqiy madaniyati, shuningdek shifokor axloqi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: bozor iqtisodiyoti, kasbkorlik axloqi, kasbkorlik axloqiy madaniyati, shifokorlik axloqi, ma'naviyat, mehnat.

ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ ЭТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ В ЭТИКЕ

Дустмурад Тошпулатович Норкулов

Доктор философских наук, профессор кафедры общественных наук
Ташкентской Медицинской Академии

АННОТАЦИЯ

В статье освещается этическая культура бизнеса в условиях рыночной экономики, а также этические вопросы врача.

Ключевые понятия: рыночная экономика, профессиональная этика, профессиональная этическая культура, медицинская этика, духовность, труд.

Respublikamiz Prezidenti keyingi yillarda oliy ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko'tarish, oliy o'quv yurtlari tizimini yanada rivojlantirish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etishga, yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratmoqda. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida "ijtimoiy fanlarga e'tibor bermaslik oqibatida dunyoqarashi bir tomonlama shakllangan, o'zidan boshqani o'ylamaydigan, xalq, davlat va jamiyat tushunchalaridan begona bo'lgan va bugungi kunda chet ellarda "Boy berilgan avlod" deya atalayotgan yoshlar avlodi bizda ham vujudga kelmaydimi?" [1 – 234 b.] degan masalani qo'ygan edi.

Shundan kelib chiqib, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida kasbga o'qitish ko'lamini 2 barobarga oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqarolarimizni, yoshlarimizni kasb-xunarlariga o'qitish, maktabgacha ta'limdagi qamrov



darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish, oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish, ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayligini oshirish maqsadida tibbiyot klasterlarini tashkil etish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug'urtalash amaliyotini joriy qilish kabi maqsadlarni belgilab berdi.

Bu maqsadlarni amalga oshirishda ijtimoiy fanlardan biri bo'lgan "Axloqshunoslik" fanining yoshlarni kasbiy axloqiy madaniyatini va, jumladan, shifokor axloqi masalalarini yechimini topishda, uning shakllanishi, rivojlanishida o'rni kattadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomil-lashtirish bo'yicha bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida ham Prezidentimiz «Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustaxkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma'naviyat» [2] deb aytib o'tgan edilar. Bu masalalarni yechimini topishda turli nazariyalar va axloqshunoslik fanining o'rni kattadir. Jumladan axloqshunoslik fanining tuzilishida kasbiy axloq nazariyasi alohida o'rin tutadi. Kasbiy axloq nazariyasi qaysi hunar yoki kasb bo'lishidan qat'iy nazar har bir shaxs shular bilan shug'ullangan vaqtida amal qilishi lozim bo'lgan axloq-odob normalari qoidalarini o'z ichiga oladi.

Axloqshunoslikning bu tarkibiy tuzilishi juda murakkab xarakterga ega. Har bir kasb egasi, jumladan, shifokorlar amal qilishi kerak bo'lgan umumiy axloq qoidalari va normalari, ayni chog'da alohida olingan kasb yoki hunar egalari rioya qilishlari zarur bo'lgan axloq normalari hamda qoidalari mavjuddir. Kasb axloqi nazariyasi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga muvofiq tarzda rivojlanib boradi. Kasb axloqi normalari va qoidalaridagi o'zgarishlar jamiyat ijtimoiy tarkibi, ichki va xalqaro mehnat taqsimotidagi o'zga-rishlarga bog'liq bo'ladi. Har bir mamlakatda doimo kasb, qadr-qimmat qadrlangan va hurmat qilingan, o'z kasbining ustasini har qanday kasbda e'zozlaydilar.

Kasb-hunar egalarining hurmatini ta'minlaydigan vosita bu mehnatdir. Mehnat yana butun moddiy va ma'naviy madaniyatning hamda ijtimoiy taraqqiyotning asosi, shu bilan birga kishilar kamolotining muhim vositasidir. Mehnat ijtimoiy foydali bo'lishi bilangina ahamiyatli bo'lib qolmay, balki u kishining shaxsiy hayoti uchun ham alohida mavqyega ega. Mehnat insonning ichki dunyosini ko'rkam qilib, ma'naviy fazilatlarini shakllantiradi, irodasini mustahkamlaydi, maqsadlarini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev «Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi



Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim» [3] deb uqtirdi Oliy Majlisga Murojaatnomasida.

Mehnat umuminsoniy, milliy va ma'naviy qadriyatlar taraqqiyotining asosidir. Inson mehnat faoliyati jarayonida o'z-o'zini qaror toptiradi, qobiliyatlarini o'stiradi, iste'dodlarini takomillashtiradi. Mehnatsiz u o'z insoniy mohiyatini yo'qotadi. Yosh avlodda yuksak ma'naviy fazilatlarni o'stirish va kamol toptirish uchun mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash, unda mehnat qilishga amaliy, ruhiy jihatdan moyillikni uyg'otish, kasb-hunar o'rgatish talab etiladi. Bu haqda Bahouddin Naqshband aytganidek: «Agar kishi hunarli bo'lsa, o'z bilimni haqiqatga bag'ishlaydi, o'z mehnati bilan kun kechiradi, bordi-yu kasbi bo'lmasa, bilimni kun kechirishga sarflaydi, halol mehnatni unutadi.»

Bu haqda Farobiy shunday yozadi: «Fozil jamiyat va fozil shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod bo'ladilar... Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo'ladi» [4 – 39 b.].

Bu fikrni Beruniy davom ettirib, «insonning qadr-qimmatini o'z vazifasini a'lo darajada bajarishdan iborat: shuning uchun insonning eng asosiy vazifasi va o'rni mehnat bilan belgilanadi, inson o'z hohishiga mehnat tufayli erishadi» [4 – 51 b.], - deb yozgan edi.

Yosh avlodni sabot-matonat bilan faoliyat ko'rsatishga odatlantirish unda ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishiga ko'maklashadi. Shundagina u mehnat qilish natijasida olgan bilimlarini hayot bilan bog'lash imko-niyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari mehnat ularning tabiatida jamiyat foydasi uchun faoliyat ko'rsatish insoniy burch ekanligini anglab yetish kabi eng yuksak tuyg'uni uyg'otadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida «Har bir inson mehnat qilish, mehnat turini ixtiyoriy tanlash, adolatli, qulay mehnat sharoitida ishlash huquqiga ega» deb ta'kidlangan. Shunday ekan bugungi kunda O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, halq farovonligini ta'minlash yo'lida mehnat qilayotgan xalqimiz, fermer dehqonlarimiz fidokorona mehnati bilan faxrlanish hissi, mehnat va intizomning ahloqiy mazmuni ortib bormoqda. Bundan tashqari O'zbekistonda xususiy firmalar ishlab chiqarish korxonalarida mehnat qilayotgan ishchilarning mahsulot sifati uchun javobgarlik



hissi oshib bormoqda. Mehnat jarayonida kishilarda kasb-korlik madaniyati qaror topadi, mehnat samarasidan el-yurt manfaatdor bo'ladi. Umuman mehnatsevarlik xalqimizning asosiy xislatlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun «mehnat – rohatning poydevori», deb xalqimiz bejiz aytishmagan. Jamiyat manfaati uchun fidokorona halol mehnat qilish mamlakatimizning har bir fuqarosi uchun xulq normasiga aylansa, kishi kamolatining asosiy omillaridan biriga aylanadi va axloqiy buzilishdan saqlaydi. U chinakam ijodga, shodlik manbaiga aylanadi. Shunday qilib, ijtimoiy foydali faoliyatning turli sohalarida mehnat faolligi qanchalik yuksak bo'lsa, ularning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati, siyosiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Markaziy Osiyo xalqlari, xususan o'zbek xalqi ham, kasb-hunar axloqi bo'yicha yuksak darajada rivojlangan madaniyatga ega bo'lganlar va bu madaniyat hali ham rivojlanishda davom etmoqda.

Masalan, xalqimiz orasida shifokorlar, mohir ustalar, hunarmandlar yuqori darajada obro-e'tiborga, ehtiromga ega bo'lgan. Sohaning ustalari, hunarmandlar tomonidan yaratilgan mahsulotlar nafaqat mintaqada, balki halqaro darajada ham go'zalligi, chidamliligi, bejirimliligi bilan ajralib turgan va qadrlangan. Bunga albatta hunarmandlarning yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lgani tufayli erishilgan. Aholi hunarmandlarni halolligi, insofiligi uchun qadrlagan. Xalq manfaatlariga xiyonat qilgan hunarmandlar el orasida o'z obro'sini yo'qotgan. Markaziy Osiyo xalqlarining kasb-hunarga bo'lgan hurmat-ehtiromi jug'rofiy xududlarning nomlanishi, xalq ijodiyotida o'zining erkin ifodasini topgan. Masalan: «Ishchilar shaharchasi», «O'qchi mahallasi», «Shifokorlar shaharchasi», «Novvoylar mahallasi» va boshqalar. O'zbek xalqining qator maqollarida ham mintaqamiz aholisining kasb-hunar axloqiga munosabati o'z aksini topgan. Masalan:

Hunari yo'q kishining,

Mazasi yo'q ishining.

Hunar hunardan unar.

Yigit kishiga qirq hunar ham oz va hakoza.

Mustaqillik Respublikamizda halqimizga, yoshlarimizga milliy, mahalliy kasb-hunarlarini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratdi. O'tish davri odamlardan ishbilarmonlik, tadbirkorlik, yetti o'lchab bir kesishni talab qilmoqda. Halqimiz hozirgi sharoitda o'tkazilayotgan hunarmandchilik, kasb-kor sohalarini tiklashga alohida e'tibor bermoqda. Davlatimiz xalqni bozor infratuzilmasiga mos kasblar menejment, marketing va boshqalarni egallashga da'vat qilmoqda.

Xullas xalq qonun yo'l qo'ygan tarzda tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun sharoitlar yaratilgan. Bugun masala o'sha



«Buyuk ipak yo'li» orqali aholi ishlab chiqargan mahsulotlarining shuhratini qayta tiklash, mavjud bozorlarning jahon mezonlari talablari darajasiga ko'tarilishidan iboratdir. Bozor iqtisodiyotiga o'tilishi, qishloqqa sanoatni olib kirish yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar munosabati bilan yangi kasblar shakllanmoqda. Bu albatta ular oldiga qo'yiladigan axloqiy normalar va qoidalarni ishlab chiqishni talab qiladi. Bunday muammolarning hal qilinishi esa axloqshunoslik nazariyasi va amaliyotining yanada rivojlanishiga katta imkoniyatlar yaratadi.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti sharoitida shifokor axloqi masalasi yanada dolzarblashdi. Shifokor axloqi umuman kasb axloqi, shuningdek o'ziga xos normalar va qoidalarga bo'ysunadi. Shifokorlik kasbi sharafligi, ayni chog'da ma'suliyatli hamdir. Chunki shifokorning faoliyati qanday tashkil qilinishi xalq, insoniyatning salomatligi qay darajada bo'lishini belgilab beradi. Shifokorlarimiz orasida el-yurt olqishiga sazovor bo'lgan, obro'-e'tiborli kishilar ko'pchilikni tashkil qiladi. Mustaqillik tibbiyot sohasini rivojlantirishda bevosita xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Keyingi yillarda aholini dori-darmon bilan ta'minlash tizimini erkinlashtirish yuzasidan amaliy chora-tadbirlar ko'rildi. Bu tibbiyot sohasida bozor munosabatlarini rivojlantirishga ko'maklashadi. Dori-darmonlarga, tibbiy xizmatga qo'yiladigan baholar erkinlashtirildi. Bu tibbiyot xodimlarining farovonligini oshirishga yo'l ochib bermoqda. Biz tibbiyot sohasida yangicha iqtisodiy munosabatlarning shakllanishiga ijobiy munosabatdamiz. Lekin ularning faoliyati harakatdagi qonunchilik talablariga mos bo'lishi kerak. Respublikadagi tibbiyot tizimi xizmatlaridan aholining barcha tabaqalari foydalana olishi uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Albatta, tadbirkor, el-yurt manfaatini o'z manfaatlari bilan uyg'unlashtira oladigan mohir shifokorlarimiz ko'p.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2017 yil 5 yanvar, 7 fevral, 12 dekabr kunlari sog'liqni saqlash sohasining bir guruh yetakchi mutaxassislari bilan uchrashdi. 2 ming 500 nafar vrach yetishmasligi, zamonaviy uskunalar bilan jihozlash va dori vositalari bilan ta'minlash darajasi pastligi ta'kidlandi. 340 nomdagi dori vositalari va tibbiyot buyumlari chegaralangan narx bilan sotilishini tashkil etishga e'tibor qaratish o'qtirildi. Harakatlar strategiyasiga muvofiq 78 ta tuman tibbiyot birlashmalarini, 7 ta shahar, 2 ta viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi qayta qurildi, tez tibbiy yordam xizmatini 1200 ta maxsus avtotransport bilan ta'minlandi [5 – 105 b.].

Harakatlar strategiyasida va Taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan tibbiyot sohasi, xususan, birlamchi tibbiyot muassasalari, qishloq vrachlik punktlari, oilaviy poliklinikalar,



patranaj xizmati, tez tibbiy yordam tizimi tubdan islox etilib, ularning faoliyatini zamon talablariga to'liq javob beradigan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish borasida huquqiy bazani mustahkamlash ham muhim o'rin egallaydi. Harakatlar strategiyasida bir qator qonun loyihalarini ishlab chiqish masalasi qo'yilgan bo'lib, odam a'zolari va to'qimalarini transplantatsiya qilish to'g'risida»gi qonun loyihasi shular jumlasidandir. Ushbu qonun loyihasini ishlab chiqish orqali aholiga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar doirasi kengaytiriladi hamda odam a'zolari va to'qimalarini transplantatsiya qilish tartibi belgilanadi va bu sohadagi ishlar yanada yuqori darajaga ko'tariladi.

Sog'liqni saqlash, ta'lim va fan sohasini rivojlantirishga har yili davlat byudjetining 60% yo'naltirilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda ta'lim samaradorligi, taraqqiyotning 16% -moddiy texnik bazaga, 20% -axborot resurslariga, 64% - inson omiliga bog'liq ekan [5 – 107 b.].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Axloqshunoslik fani asoslarini bilish talaba yoshlarimiz va tibbiyot xodimlari uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda «Sog'lom avlod uchun» dasturi ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar boshqa kasb egalari singari tibbiyot xodimlarini ham sinovdan o'tkazmoqda. Iqtisodiy qiyinchiliklarni rukach qilib, o'z kasbiy majburiyatlariga xiyonat qilayotgan shifokorlar ham, afsuski uchrab turibdi. El-yurt orasida obro'topgan shifokorlar ham talaygina. Hozirgi vaqtda boshqa sohalar kabi tibbiyot sohasida ham xususiy tadbirkorlik bilan qonuniy asosda shug'ullanish uchun imkoniyatlar yaratildi. Bu ham shifokorlar uchun katta imkoniyat. Aholini kam ta'minlangan tabaqalariga ham pullik tibbiy xizmatdan foydalanishga sharoit yaratib berilmoqda.

Shunday qilib, Axloqshunoslik fani kasbiy axloq muammolarini o'rganish mamlakatimizda axloqiy jihatdan madaniyatli, yaxshi fazilatli, o'z kasbini mohir ustasi bo'lgan insonlarni, shifokorlarni tarbiyalashda o'ziga xos ahamiyatga egadir.

REFERENCES

1. Mirziyoev Sh.M, Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent, O'zbekiston, 2021. – 234 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev raisligida 19 yanvar 2021 yil ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha videoselektor yig'ilishi// Xalq so'zi, 20 yanvar 2021 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi, 30 dekabr 2020 yil.



4. Buyuk siymolar, allomalar. – Toshkent, Abdulla Qodiriy, 1995.
5. Norqulov S., Raximov M. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, Universitet, 2020. - 105 b.
6. Норкулов С. Д. Жамият ижтимоий онгидаги ўзгаришларнинг кишилар маънавий ҳаётига таъсири масалалари //ЁШ ОЛИМЛАР АХБОРОТНОМАСИ. – 2022.
7. Норкулов Д., Норкулов С., Бобоёрова Н. Фуқаролик жамияти шаклланиши жараёнида ижтимоий онгни ўзгаришлар. – 2021.
8. Норкулов С. Д., Атамуратова Ф. С. Диалоговая технология в образовательном процессе //Сборник тезисов и докладов научно-практической конференции к 100-летию ташкентской медицинской академии. – С. 74.



CONTENTS

MUNDARIJA

1. Narkulov, S. D. (2023). TALABA-YOSHLAR MAFKURAVIY IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIIY FANLARNING O'RNI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 6-9.

2. Назаров, Қ. Н. (2023). ИЖТИМОИЙ ФАНЛАР ТИЗИМИ ВА ТАЪЛИМИНИНГ ЯНГИЛАНИШ ДИАЛЕКТИКАСИ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 10-16.

3. Балтабаева, А. Ю. (2023). НАВЫКИ АКАДЕМИЧЕСКОГО ПИСЬМА В ВУЗАХ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 17-21.

4. Мухамедова, З. М. (2023). РОЛЬ МЕДИЦИНСКОЙ ГУМАНИСТИКИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 22-31.

5. Отамуратов, С. (2023). ВАЖНАЯ РОЛЬ ИЗУЧЕНИЯ СОЦИОЛОГИИ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 32-36.

6. Власова, В. Н. (2023). РОЛЬ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ ДИСЦИПЛИН В ФОРМИРОВАНИИ ЦЕННОСТНЫХ ОРИЕНТАЦИЙ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКОГО ВУЗА. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 37-39.

7. Abilov, O. (2023). TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA MANTIQUIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING ANAMIYATI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 40-45.

8. Камилов, Ф. О. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА БОЛАЛАРНИ ИЖТИМОИЙ ҲИМОЯ ҚИЛИШ ТИЗИМИДА ИЖТИМОИЙ ИШ: ТАЖРИБА ВА АМАЛИЁТ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 46-49.

9. Himmet, K. (2023). HEALTH CARE ENTREPRENEURSHIP: SUCCESS STORIES AND CASE STUDIES. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 50-54.

10. Шолудченко, И. Е. (2023). РОЛЬ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК В УЧЕБНОЙ ПРОГРАММЕ МЕДИЦИНСКОГО ВУЗА. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 55-59.

11. Дуйсенова, С. М. (2023). ФОРМИРОВАНИЕ ГУМАНИСТИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКИХ ВУЗОВ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 60-65.

12. Norqulov, D. T. (2023). AXLOQSHUNOSLIKDA KASBIY AXLOQ MASALALARI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 66-72.

13. Otamurotov, S. (2023). GLOBALASHUV JARAYONIDA FANNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 73-78.

